



Aglomeratsiyalarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish tasnifining ba'zi masalalari

Quvondiqova Hamida Nasriddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

*XGeografiya va geoaxborat tizimlari fakulteti ijtimoiy-iqtisodiy
geografiya kafedrasи I – bosqich tayanch doktoranti*

Kalit so'zlar: Aglomeratsiya, iqtisodiy shahar, aholi, chegara

XX- asrdan boshilaridan ko'plab tadqiqotchilar aglomeratsiya masalasini o'rganib kelishmoqda. Aglomeratsiya konseptsiyasining paydo bo'lishi A. Veberning asalariga borib taqaladi. Kuchli aglomeratsiya jarayoni hunarmandchilikdan sanoatlashgan davrga o'tishda yuz berdi. Aglomeratsiya konseptsiyasining rivojlanishiga amerikalik iqtisodchi E. Guver "shahar iqtisodiyoti konsentratsiyasi" g'oyasini ilgari surgan va iqtisodiy yirik zavod bilan aglomeratsiyani taqqoslagan. Aholi punktlariga nisbatan "aglomeratsiya" atamasini fransuz geografi M. Ruje tomonidan kiritilgan. Shahar aglomeratsiyasi turlicha nomlar bilan keng tarqala boshlagan. Masalan A.A.Kruber "shaharning iqtisodiy tumani", M.G.Dikanskiy "iqtisodiy shahar", V.P.Semenov Tyanshanskiy "shahar aglomeratsiyasi" tushunchalarini kiritishgan. Bundan tashqari Dubrovin, V.G.Davidovich, D.I.Bogorad, G.M.Lappo, F.M.Listengurt, I.K.Kudryavtsev, Yu.L.Pivo ham tadqiqotlar olib borishgan. Aglomeratsiyalarni rivojlanish nazariyalarini nemis maktabi iqtisodiy geograflaridan I.Tyunen (1826), V.Launhardt(1882), A.Veber (1909), V.Kristaller (1933), A.Lesh (1940-1959) o'rganishgan bo'lsa, amerika maktabi iqtisodiy geograflarida U.Ayzard (1956,1960), T.Xagerstrand (1967), D.Djeykobs (1969) fransuz maktabi iqtisodiy o'sish qutblari nazariyachilari esa F.Peru (1961,1964, 1990), P.Pote (1963), J.Budvil (1966) yillarda tadqiq etganlar. Aglomeratsiya ta'riflashda turlicha yondashuvlar mavjud. bo'lib ular 3 katta guruhg'a bo'linadi. Birinchi guruh tarafdarlari " turar joy aglomeratsiyasi" nuqtai nazardan tarif bersala, ikkinchi guruh ta'rifi aholi punkti hamda ishlab chiqarish kuchlarini taqsimlash shakli sifatida yondashilgan. Uchinchi guruhning tarifi 1970 yillarning o'rtalariga to'g'ri kelib "sotsiologlashtirish" tendensiyalari bilan bog'lash mumkin. Aglomeratsiya haqidagi turli qarashlarni jamlab quydagicha ta'rif berish mumkin. Shahar aglomeratsiyasi-bir birini to'ldiruvchi shahar va qishloq qishloq aholi punktlarining nisbatan rivojlangan tizimidir. Jahon aglomeratsiyasi ham ham o'z navbatida bosqichma bosqich shakllanib rivojlanmoqda. Quyida aglomeratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

1. Dunyoning qadimiy shahar posyolkalari Afina, Iskandariya, Rim asta sekin rivojlanib o'z atrofidagi aholi punktlarini qo'shib oladilar va turli xil iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatgan.
2. Yevropa aglomeratsiyasi bo'lib XVII asrda Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya aglomeratsiya rivojlna boshlagan.
3. XIX asrda Shimoliy Amerikada yirik shahar posyolkalari va aglomeratsiyalarini shakllanish bosqichlari boshlandi.
4. XIX-XX asr oxirida Rossiya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida



5. XXI – Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida aglomeratsiya jarayoni kuchaydi.

Qayd etilishicha SSSR hududida 1979 yilgi aholi ruyhatga olish paytida kamida 100 ming aholiga va ikkita shahar posyolkasidan transportdan foydalanish radiusi 2 soat bo'lgan 193 ta shunday shaharlar bosh turar joy sxemasida aniqlangan. Shunday bo'lsada aglomeratsiya atamasi rasmiy ravishda qo'llanilmagan. Hozirgi vaqtida "aglomeratsiya" atamasi yanada faol qo'llanilmoqda. Aglomeratsiyalar shakllanishining zamonaviy davrida sanoatlashtirish, transmilliyashuv, glaballashuv jarayonlari bilan ajralib turmoqda Yirk shaharlar nafaqat mintaqaviy balki global miqyosda ham investorlar sayyoohlarni jalg qilish va ushlab qolish uchun raqobatlashmoqda. Shuningdek aglomeratsiya chegaralarini aniqlash ham kelajakda rivojlanishini belgilovchi muhim omillardandir. Chegaralarni aniqlash uchun dastlab a)o'rganilayotgan hududni re'jashtirish, kartografik asoslari va yo'ldosh shaharlar soni b)shahar va yo'ldosh shaharlar aholi soni d)aholi punktlari orasida mayatnik migratsiya haqidagi statistik ma'lumotlar agar ular bo'lman taqdirda temir yo'l vakzallari junatilgan yo'lovchilar soni to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlari, uyali aloqa operatori malumotlari va boshqalar e)shahar chegaralarining vektor qatlamlari ma'lumotlari kerak. Aglomeratsiya - bu kuchli urbanizatsiyalshgan jarayon bo'lib, kapitalni jalg qiladigan, tadbirkorlar va odamlarning loyihamini o'zida jamlaydigan hududdir. Yirk zamonaviy shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi quydagi samaralarni beradi.

1. Rivojlangan hududiy bozor ko'rinishidagi mintaqaviy iqtisodiyotning istemol bozori uchun istiqbolli mahsulotlar ishlab chiqarish. Tovar va xizmatlarning bir nuqtada birlashtirish, bir xillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish

2. Aglomeratsiya maydonida yirik korxonalarning mintaqaga kelishi uchun mahalliy kompaniyalarning bozor yetakchilari darajasiga ko'tarilishi uchun keng imkoniyatlar yaratish

3. Mehnat bozorini to'g'ri shakllantirish, ish beruvchilar va ishchilar uchun imkoniyatlar xilma xilligi zamonaviy kompetensiyalarini yordamida malakali kadrlarni shakllantirish

4. Zamonaviy modirnizatsiya jarayonida tabiiy fanlar doirasida innovatsion jarayonga ziyolilarni taklif qilish

5. Infratuzilma effekti yani yangi energiya quvvatlarini, transport tizimi komplekslarini – portlar, aeroportlar, logistika markazlari qurilish loyihamini o'z ichiga oladi

Xulosa. Bugungi kunda aglomeratsiyalar ilmiy tadqiq etish orqali mamlakatimizda aholi puktlarini hududiy to'g'ri tashkil etishmiz, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishimiz mumkin. Shuningdek malakali kadrlar bilan mintaqaning barcha hududlarini taminlab berishimiz imkoniyati tug'iladi. Shahar hududiy tizimlarining tez rivojlanishi oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy- iqtisodiy, ekologik muommolarni ilmiy tadqiqotlar hamda yaratilgan nazariyalarni amaliyotda qo'llash orqali hal qilish mumkin. Tahlillar natijasida aglomeratsiya jrayonlarini faollashtirish, boshqaru samaradorligini oshirish yo'llari va tadqiqotlarning ustuvor yunalishlari to'g'risida xulosalar chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.С. Антонюк, М.В. Козина, Э.Р. Вансович, Н.А. Сигатова “ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОРОДСКИХ АГЛОМЕРАЦИЙ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ” Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2021. Т. 15, № 2. С. 7–19



2. Монастырская М.Е., Песляк О.А “МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГРАНИЦ ГОРОДСКИХ АГЛОМЕРАЦИЙ” Monastyrskaya M.E., Peslyak O.A. The method of determining the boundaries of urban agglomerations. Bulletin of BSTU named after V.G. Shukhov, 2019, no. 1, pp. 111–121. DOI: 10.12737/article_5c73fc21703586.16507052
3. Антипанин Иван Александрович “МЕГАПОЛИС: ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ В СТАРОПРОМЫШЛЕННОМ РЕГИОНЕ”